

PAPER

RANG-TUS BILDIRUVCHI SO‘ZLARNING SALBIY KONNOTATSIYANI IFODALASHI

Xrojiddinova Muattar Mansurovna^{1, *}

¹Qo‘qon DPI o‘qituvchisi, f.f.b.f.d (PhD)

* xrojiddinova@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada rang-tus bildiruvchi so‘zlarning salbiy konnotatsiyani ifodalashi, rang-tus bildiruvchi so‘zlar turli pragmatik maqsadlarda qo‘llanishi natijasida salbiy ma‘no ifodalab, nutqda konnotativ ma‘no bildirishi hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, rang-tus bildiruvchi so‘zlar salbiy konnotatsiyani ifodalashi turli misollar yordamida tahlil etib berilgan.

Key words: Rang-tus bildiruvchi so‘zlar, nutq, salbiy konnotatsiya, idiomatik birlik, og‘zaki, yozma hamda poetik nutq.

Kirish

Rang-tus bildiruvchi so‘zlar nutqda keng istifoda etilar ekan, ularning salbiy konnotatsi gapda leksemalar qurshovida voqelanadi. Rang-tus bildiruvchi so‘zlar turli pragmatik maqsadlarda qo‘llanishi natijasida salbiy ma‘no ifodalab, nutqda konnotativ ma‘no bildirishga o‘tadi. Ularning salbiy ma‘nosi o‘xshatishli, metaforik, idiomatik birliklar qurshovida yuzaga keladi.

Shuni alohida ko‘rsatish lozimki, salbiy konnotatsiyali rang-tus bildiruvchi leksemalarning pragmatik semalari xuddi ijobiy konnotatsiyali pragmatik semalar singari ko‘proq oq va qora semalari doirasida oppozitsiya hosil qilib, og‘zaki, yozma hamda poetik nutqda ishlatiladi. Ular ko‘proq o‘xshatishli, epitet, metaforik hamda idiomatik ko‘chimlar qurshovida keladi. Bunday hodisalar nutqqa ekspressivlik, emotsionallik va baholash othenkalarini berish bilan bir qatorda subyektlarning shaxs sifatidagi fe‘l-atvorini belgilashga, ular xarakteridagi nuqsonlarni to‘laqonli ochib berishga xizmat qiladi. H.Olimjonning “Oygu bilan Baxtiyor” ertak-dostonida quyidagi satr keltirilgan:

*Men bir qaro kunda tug‘ildim,
Tug‘ildim-u shu on bo‘g‘ildim...*

Bu o‘rinda “qaro kun” epitet birikuvi salbiy konnotatsiya hosil qilib, ichki mazmunida o‘xshatish ma‘nosi ifodalanayotganini sezish qiyin emas. Bu birikma, ya‘ni “qaro kun” birikmasi Abdulla Qodiriy aytganidek, “yaqin o‘tmishning eng kir, qora, zulm-u nifoqqa to‘la kunlari” degan pragmatik ma‘no kishining shuuriga o‘rnashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bu epitetning ichki qurilishida o‘xshatish va metaforaning bir-biriga singib ketishi borligi birikuv shakli va u anglatayotgan ma‘nodan ham sezilib turadi. Kezi kelganda A.A.Potebnyaning yuqorida keltirilgan “Metafora – qisqargan o‘xshatishdir”, degan fikridan kelib chiqqan holda, o‘xshatish va metafora o‘rtasidagi juz‘iy farqlar haqida to‘xtab o‘tish zaruriyati tug‘iladi.

Tilshunoslar M.Qurbonova, M.Yo‘ldoshevning qayd etishlaricha, “o‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizda, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta‘minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o‘xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to‘rt unsur nazarda tutiladi, ya‘ni:

- 1) o‘xshatish subyekti;
- 2) o‘xshatish etaloni;
- 3) o‘xshatish asosi;
- 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari.

Masalan, Alisher tulkiday ayyor bola. Bunda Alisher – o‘xshatish subyekti; tulki – o‘xshatish etaloni; ayyor – o‘xshatish asosi; -day – o‘xshatishning shakliy ko‘rinishi hisoblanadi”. [1.B.75] Olimlar yana davom etib qayd qiladilarki, badiiy matndagi o‘xshatishli qurilmalar tekshirilganda, ularni an‘anaviy va xususiy muallif o‘xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo‘ladi. An‘anaviy o‘xshatishlar og‘zaki nutqda ko‘p ishlatiladigan, shu sababdan ta‘sirchanligini yo‘qotgan o‘xshatishlardir. Masalan: tulkiday ayyor, toshday qattiq, yuzlari oydek, ko‘zlari charosdek, qo‘yday yuvosh, otning qashqasidek ma‘lum kabilar... Xususiy muallif o‘xshatishlari yozuvchining

o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlardir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi".[1.B.76]

Tahlil va natijalar

Shu o'rinda qayd qilishni istardikki, yuqorida iqtibos qilingan fikrlardagi an'anaviy o'xshatishlar haqidagi qarashlarga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Chunki an'anaviy o'xshatishlarda ham qaysidir ma'noda ta'sirchanlik, ekspressivlik, baholash holatlari bilinib turadi. Buni olimlarning o'zlari ham sezadilar, shekilli, fikrlarini yakunlash jarayonida ushbuni qayd etadi: "Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa, hodisa, harakat holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavalantirishdan iborat bo'lmog'i lozim". O'xshatishlar ijobiy konnotatsiyali bo'ladimi, salbiy konnotatsiyali bo'ladimi, baribir emotsionallik va baholash vazifasini saqlab qoladi. Bu, ayniqsa, sifat o'xshatishning, rang-tus sifatleri bilan hosil qilingan o'xshatishli birikmalar aniq sezilib turadi: Mavzuni yaqin o'tmishimizning eng kir, qora kunlaridan oldim. (A.Qodiriy).

Bu leksik qurshovdagi "kir kunlari" yozuvchining xususiy o'xshatishi, "qora kunlari" esa an'anaviy o'xshatish. Har ikki o'xshatishda, tabiiyki, butun bir kontekstda ta'sirchanlik saqlanib qolgan. Tilga olingan manbada ushbu mikromatn keltiriladi: Burungi so'fidan, yaqindagina kelib bir hafta yotib ketgan so'fidan asar yo'q. Uning rangi machitning jaydari shamidek sap-sariq... go'yoki kasaldan yaqindagina bosh ko'targan. Keltirilgan misolda so'fining, ruhoniy kishining so'ngan, sarg'aygan rangi masjidning jaydari shamiga o'xshatilgan. Ta'kidlash lozimki, yozuvchi (bu o'rinda Cho'lpon va uning "Kecha va kunduz" romanidagi Razzoq so'fi hayotining so'nggi kunlari nazarda tutilmoqda. – M.X.) tasviridagi holat, qahramon – ruhoniy, sham masjidniki, qahramon g'arib, dardman, sham jaydari, arzonbaho, qahramon tuganmas dard bilan adoyi tamom bo'lib bormoqda, sham – yonib tugashning ham ramziy ifodachisi. Sap-sariq sifati bilan ifodalangan o'xshatish asosidagi belgi benihoya quyuqlashib katta bir dard shaklini olgan.[2.B.76]

Fikrimizning dalili sifatida ayrim misollarga murojaat qilamiz.

1) Ro'ziqul shu qadar ko'p gunoh ishlar qildiki, qariganda yuzlari kuya singari qop-qora tus oldi, yoshligida chaqnaq turgan ko'zlaridan nur so'ndi, qip-qizil yuzlari avvaliga sarg'imtir tus oldi, keyin ana shunday holga tushdi. Ha, uni o'zi badnom etgan qizlarning qarg'ishi tutdi.[3.B.212] Mikromatnda ishtirok etgan rang-tus sifatleri ushbu o'rindarda o'xshatishli birikmada kelib, konnotatsiyani hosil qilgan. Bu degani subyektning yuzi tamoman qorayib, zangi tusini olgan, degani emas, balki uning amali bilan tashqi ko'rinishi orasidagi uzviylik tufayli, adib uning qilmishlarini bo'rttirish uchun ana shunday tasvir yaratgan;

2) Uyatdan qizning yuzi lavlagidek qizil tus oldi gapida ijobiy konnotatsiya salbiy konnotatsiyaga aylangan;

3) Uning nazarida hayoti yangi qazilgan go'rdek qora edi gapida ham hayoti barbod bo'lgan, dard-u alami dunyoga sig'mayotgan, gunohlari bisyor odamning holati tasvirlangan;

4) Yigit qirq yil chekdi; barmoqlarining orasi yuvilmagan buyum singari qora-sariq tusga kirdi. Tishlari chirigan makkajo'xori kabi qoramtir sariq rang oldi gapida ham o'xshatishli birikmalar salbiy konnotatsiya hosil qilgan;

5) Daydining ko'yilgi avvaliga qizil bo'lgan, shekilli, yuvilib-dazmollanmaganidan g'ijimlangan, kasallangan olma gulidek nafarmon tus olgan edi gapida ijobiy konnotatsiya salbiy konnotatsiyaga o'sib chiqqan;

6) Ukkinning ko'zlaridek dumaloq, ko'kimtir ko'zlariga qon to'ldi, ko'zlarining atrofi qizardi gapida ham salbiy ma'no va u tufayli paydo bo'lgan pragmatik holat yaqqol namoyon bo'lgan;

7) Kasaldan endigina turgan, to'ridan go'ri yaqin bu yaramasning yuzlari xazon yaprog'idek sap-sariq, so'lg'in, kishini qo'rqitadigan darajada ichiga botgan edi gapidagi konnotativ ma'no salbiy ottenka ifodalayotganin sezish qiyin emas.

Lingvistikaga oid ko'pgina adabiyotlarda, jumladan, yuqorida ko'rsatilgan kitobda ham metaforaning ikki turi – lingvistik va xususiy muallif metaforalari ustida gap boradi. Bu masalalarda barcha tilshunoslar yakdil. Biroq, bizningcha, metaforalar ko'chimga olib kelar ekan, ularda ta'sirchanlikning miqdori haqida gap borishi lozim xolos – an'anaviy o'xshatishda emotsionallik bo'lmaydi, xususiy muallif o'xshatishida ta'sirchanlik bo'ladi, deb emas. Bu borada M.Mamadaliyeva masalaga yaqin boradi. U quyidagilarni yozadi: "Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi".[4.B.12] Modomiki shunday ekan, o'xshatishda ham konnotativ ma'no shu darajaga yaqin bo'ladi. Zero, o'xshatish bilan metafora o'rtasidagi tafavutlar qisman ma'noda, ko'proq shaklda namoyon bo'ladi. Ya'ni:

a) o'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi;

b) o'xshatishda ikki komponent – o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi;

c) o'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzas darajasigacha kengayishi mumkin. Metaforalar so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi;

d) o'xshatishlarda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Biz oldingi faslda aytmoqchi bo'lgan fikrlarni ushbu faslda aytib o'tishimizning bir sababi borki, bu ham bo'lsa, aytilmoqchi bo'lgan fikrlar rang-tus sifatlarining ijobiy konnotatsiyasiga qaraganda, salbiy konnotatsiya hosil qilishi va pragmatik semalar sifatida namoyon bo'lishidagi o'rniga borib taqaladi. Agar "Qilmishlari tufayli bu insonning yuzi el orasida ko'mirdek qop-qora edi" yoki "Ichaverganidan Piyonovning burni sabzidek qip-qizil bo'ldi" gaplarida o'z ma'no bilan ko'chma ma'no uyg'unlashib, salbiy konnotativ ma'no sodir qilmoqda va uning pragmatikasi, ya'ni birinchisida, "aybi ko'p", "gunohi kabira", "qilmishlari kechirilmas" kabi ma'nolarni ifodalayotgan bo'lsa, ikkinchisida o'z ma'no (burunning qip-qizarib qolishi) va ko'chma (ichkilikboz, piyonista, uyatsiz, gunohkor singari) pragmatik ma'nolarga ishora qilib turibdi

Ayrim misollarga murojaat qilamiz:

A.Suyunning "Oq va qora" sarlavhali she'rida "Oq tog'larni izladim, qora tog'lar duch keldi" satri mavjud. Bu metaforik mazmundagi jumlaning har qanday o'quvchi darrov tushunib yetadi. Chunki shoir bu o'rinda tom ma'nodagi tog'larni emas, balki yaxshi kishilarni izlagan holda yomonlarga duch kelgan lirik qahramonning shikoyatini keltirmoqda, uning dardini bermoqda. Agar she'rni to'liq keltirsak, misralar shaklidagi alliteratsiya va ma'nolaridagi antitezalar orqali ijobiy ottenka emas, afsuski, salbiy baholash sodir bo'layotgani, "yomonlar" ma'nosidagi pragmatik birlik yuzaga kelayotganini tushunish mumkin. Ayniqsa, she'rning so'nggi ikki misrasida salbiy konnotatsiya bo'rtib ko'rinadi: "Oq shomlar tugab, do'stlar, Qora shomlar quchguncha". Agar "oqshomlar" metaforasi ijobiy konnotatsiyaga egaligini sezsak, lirik qahramonning butun bir hayotini qora shomlar quchganiga ishonamiz.

Oq buloqni izladim,

Qora buloq duch keldi.

Qora buloq suvidan ichdim, yoronlar,

Oq buloqqa yetguncha.

Oq daryoni izladim,

Qora daryo duch keldi.

Qora daryo bag'rida cho'mildim, do'stlar,

Oq daryoga o'tguncha.

Oq tog'larni izladim

Qora tog'lar duch keldi.

Qora tog'lar quchog'ini kezdim, yoronlar,

Oq tog'larga yetguncha.

Oq va qora dunyoni Chappor urib aylandim.

Oq shomlar tugab, do'stlar,

Qora shomlar quchguncha.[5.B.73]

Rang-tus bildiruvchi so'zlar orqali salbiy konnotatsiyaning ifodalanishi epitet, metonimiya, sinekdoxa singari ko'chimlar doirasida ham kuzatiladi. M.Yusuf bir dostonini "Qora quyosh" deb atagan. Bu konnotativ birlik o'z ma'nosida kelmay, ko'chma ma'noda – o'tgan asrda qatag'onlarga yo'l qo'yib bergan va o'zi uning rahnamosiga aylangan IV.Stalinga berilgan nom ekanligini ilg'ash qiyin emas. Yoki "Otello" tragediyasida bosh qahramonning iztiroblari ayni rang-tus sifati bo'lgan "qora" leksemasi orqali ifodalanadi: "Qoramanmi men? Qoramanmi?!" Va yana: "Uning niyati qora", "Qip-qizil tentak", "Tishlari sap-sariq", "Qizilini ichadi", "Oqini xush ko'radi", "Qip-qizil ahmoq", "Qilmishi qora", "Ko'k kiygur", "Fe'li qora", "O'tmishiga qora chaplangan", "Hayot daftari qora rangda" va yana ko'pgina birliklarda metafora salbiy konnotatsiya paydo qilib, turli aspektlarda salbiy pragmatikani yuzaga keltirgan. Bu tanbehlardan Kimsanning qalin, qip-qizil lablari do'ridayi gapidagi konnotativ ma'no, Kimsanning fe'l-atvoridagi noqislikni ko'rsatuvchi pragmatikani yuzaga keltirgan.

Xulosa

Xullas, o'xshatishli qurilmalar, metaforik hamda idiomatik birliklarda salbiy konnotatsiya hosil qilinishi o'zbek tilining tabiatida xos. Bu konnotatsiya turli pragmatik maydonda o'zining o'rniga ega bo'lib, nutqda emotsionallik, ekspressivlik hamda baholash mezonlarini bo'rttirish bilan birga, o'zbek tilining lug'at tarkibida faol unsurlardan biri sifatida tilimiz taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қурбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 2014. – Б. 75.
2. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.76.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 212.
4. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив birlikларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент. 1997. – Б.12.
5. Азим Суюн. Сайланма. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б.73.